Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.111
FILOLOGIYA

INGLIZ VA O'ZBEK ERTAK MATNLARIDAGI AKSIOLOGIK BINAR OPPOZITSIYALARNING QIYOSIY TADQIQI

Omina Muxammadzoir qizi Yusupova*
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Farg'ona davlat universiteti (DSc) doktoranti
✉ yusupovaomina77@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek xalq ertaklari matnlarida uchraydigan aksiologik binar oppozitsiyalar qiyosiy jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ertaklarda aks etgan ezgulik va yovuzlik, halollik va yolg'onchilik, donolik va nodonlik, mehnatsevarlik va dangasalik, saxovat va xasislik, adolat va zulm kabi qadriyatlarga asoslangan qarama-qarshiliklarning lingvistik hamda lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, semantik, kontekstual va aksiologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek ertaklarida uchraydigan aksiologik binar oppozitsiyalar umuminsoniy qadriyatlarni ifodalash bilan birga, har bir xalqning o'ziga xos milliy-madaniy dunyoqarashi hamda axloqiy mezonlarini ham namoyon etadi. Tadqiqot natijalari qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik, lingvokulturologiya, matn lingvistikasi hamda aksiologik tadqiqotlarni rivojlantirishga ilmiy hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar

aksiologiya, binar oppozitsiya, xalq ertaklari, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, qadriyat, o'zbek xalq ertaklari, ingliz xalq ertaklari.

DOI: 10.5281/zenodo.21743459

KIRISH

Xalq ertaklari har bir millatning asrlar mobaynida shakllangan hayotiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlari va axloqiy qarashlarini o'zida mujassam etgan eng qadimiy og'zaki ijod namunalaridan biridir. Ertaklar nafaqat badiiy-estetik vazifani bajaradi, balki o'sib kelayotgan yosh avlodni ezgulik, halollik, mehnatsevarlik, donolik va adolat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi muhim vosita ham sanaladi. Shu sababli ertak matnlarini qadriyatlar tizimi nuqtayi nazaridan o'rganish hozirda tilshunoslik, folklorshunoslik va lingvokulturologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Aksiologiya qadriyatlarning mohiyati, ularning inson tafakkuri va madaniyatidagi o'rnini o'rganuvchi fan sifatida badiiy matnlardagi baholash kategoriyalarini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ertaklarda qadriyatlar ko'pincha binar oppozitsiyalar, ya'ni bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar orqali ifodalanadi. Ezgulik va yovuzlik, donolik va nodonlik, mehnatsevarlik va dangasalik, halollik va yolg'onchilik, saxovat va xasislik kabi oppozitsiyalar syujet rivoji, qahramonlar xarakteri va asarning g'oyaviy mazmunini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biridir. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarini qiyosiy o'rganish ushbu qadriyatlarning ifodalanishidagi umumiy hamda milliy xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Har ikki xalq ertaklarida umuminsoniy axloqiy tamoyillar ustuvor bo'lsa-da, ularning til vositalari, obrazlar tizimi va madaniy ramzlar orqali ifodalanishida o'ziga xos jihatlar kuzatiladi. Bu esa aksiologik binar oppozitsiyalarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan qiyosiy tahlil qilishning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Tilshunoslikda binar oppozitsiya termini dastlab XX asrning 30-yillarida Praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Mazkur tushunchaning shakllanishi, ayniqsa, N.Trubetskoyning fonologiyaga oid tadqiqotlari bilan chambarchas bog'liq. Olim fonologik birliklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilish orqali binar oppozitsiya nazariyasining ilmiy asoslarini ishlab

chiqqan va uning til tizimini o‘rganishdagi ahamiyatini asoslab bergan. U oppozitsiya haqida quyidagicha ta’kidlaydi: “Oppozitsiyalar ularni tashkil etuvchi elementlar soniga qarab turlicha nomlanadi. Xususan, ikki elementdan tashkil topgan qarama-qarshilik binar oppozitsiya, uch elementdan iborat tizim ternar oppozitsiya, to‘rt elementdan tashkil topgan tizim esa kvaternar oppozitsiya deb ataladi [10]. Fransuz antropologi va strukturalizm nazariyasining yirik vakili Klod Levi-Stross binar oppozitsiyalarni inson tafakkurining universal modeli sifatida talqin qiladi. K.Levi-Strossning ta’kidlashicha, ertaklarda uchraydigan obrazlar o‘zlarining bevosita ijtimoiy maqomidan ko‘ra chuqurroq ramziy ma’noga ega. Masalan, qirol shunchaki hukmdor, cho‘pon esa oddiy chorvador sifatida emas, balki muayyan semantik tizimning tarkibiy unsurlari sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, bu obrazlar o‘zaro qarama-qarshi munosabatlar orqali ma’no hosil qiladi. Xususan, erkak – ayol oppozitsiyasi tabiat o‘qini, yuqori – quyi oppozitsiyasi esa madaniyat o‘qini ifodalaydi. Ushbu qarama-qarshiliklarning turli kombinatsiyalari esa mif va ertaklarning mazmuniy tuzilishini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [7]. Demak, ertaklarda binar oppozitsiyalar nafaqat syujetni tashkil etuvchi badiiy vosita, balki xalqning qadriyatlar tizimi va madaniy tafakkurini ifodalovchi semantik model sifatida ham namoyon bo‘ladi. E.Meletinskiyning ta’kidlashicha, ertak olamidagi hamma narsa qarama-qarshi belgilarga ega bo‘lgan ikkita juft elementga tushadi. Tadqiqotchi ushbu hodisani ertak syujetining barqarorligi va dinamik rivoji bilan bog‘laydi. Uning fikricha, ertak voqealari qanday o‘zgarishidan qat’i nazar, mazkur binar tuzilma butun asar davomida saqlanib qoladi va ertak olamining ichki mantiqini ta’minlaydi [8]. Kanadalik tilshunos va semiotik olim M.Danez oppozitsiyalarni inson tafakkuri va madaniyatini anglashda muhim nazariy vosita sifatida baholaydi. U oppozitsiyalar “…nafaqat konseptual strukturani tushunishga yordam beradi balki til, madaniyat va kognitsiya o‘rtasidagi ichki bog‘liqlikni ham o‘rganishga yordam beradigan eng kerakli vositadir” deya ta’kidlaydi [4]. Demak, binar oppozitsiyalar til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatni yoritish bilan birga, muayyan xalqning madaniy qadriyatlari hamda dunyoqarashini anglashda ham muhim metodologik vosita hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan nazariy qarashlar asosida ingliz va o‘zbek ertaklari matnlarida uchraydigan aksiologik binar oppozitsiyalarni qiyosiy tahlil qilamiz. Tadqiqotda har bir oppozitsiya o‘zbek va ingliz ertaklaridan olingan misollar asosida yoritilib, ularning semantik hamda lingvokulturologik xususiyatlari aniqlanadi.

“Qozining makri” ertagida ezgulik va yovuzlik aksiologik binar oppozitsiyasi qahramonlarning o‘zaro munosabatlari hamda ularning axloqiy fazilatlari orqali ifodalanadi. Jumladan, yigitning: *“Dunyoda shunday yaxshi odamlar bor ekan, qozining bu yaxshiligini esdan chiqarmayman, o‘la-o‘lguncha xizmatini qilaman”* degan fikrida *yaxshi odam, yaxshilik, xizmat qilama*n kabi baholovchi leksik birliklar ezgulik konseptini ifodalovchi asosiy til vositalari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu birliklar mehr-oqibat, minnatdorlik va sadoqat kabi ijobiy qadriyatlarni aks ettirib, qahramonning axloqiy kamolotini ochib beradi. Biroq ertak voqealari rivojida qozining asl niyati ochilib, u yigitga nisbatan hiyla va makr ishlatadi. Bu holat yigitning: *“Nahotki, qozi menga shunday yomonlik qilsa, men qoziga nima qilgan edim”* degan ichki kechinmasida o‘z ifodasini topadi. Mazkur parchadagi yomonlik, nahotki, noiloj kabi leksik birliklar qahramonning ruhiy iztirobi va adolatsizlikka munosabatini ifodalash bilan birga, yovuzlik konseptining lingvistik ifodasini yuzaga chiqaradi. Shunday qilib, ertakda ezgulik va yovuzlik bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilib, syujetning asosiy g‘oyaviy o‘qini tashkil etadi. Ezgulik minnatdorlik, sadoqat va ishonch orqali, yovuzlik esa makr, xiyonat va adolatsizlik orqali ifodalanadi.

Ingliz afsonasi sanalgan “Chegara qo‘riqchisi” (The Warden of the marches)da *goodness* leksemasi yaxshilik, ezgulik semasida reallashgan. Bunda ezgulik aksiologik qadriyati qahramonlarning axloqiy fazilatlarini ifodalovchi leksik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, *“...Mary Morrison, poor as himself, but endowed with beauty and goodness...”* (“...Meri Morrison o‘zi kabi kambag‘al bo‘lsa-da, go‘zallik va ezgulik sohibasi edi”) jumlasida *goodness* leksemasi qahramonning yuksak axloqiy fazilatlarini ifodalovchi asosiy lingvistik vosita hisoblanadi. Mazkur leksema *beauty* (go‘zallik), *courage* (jasorat) va *patriotism* (vatanparvarlik) kabi ijobiy qadriyatlarni anglatuvchi birliklar bilan semantik uyg‘unlik hosil qilib, qahramonlarning ideal obrazini yaratishga xizmat qiladi. Mazkur parchada ezgulik nafaqat shaxsning ichki fazilati, balki jasorat, vatanparvarlik va go‘zallik bilan uyg‘unlashgan umuminsoniy qadriyat sifatida talqin qilinadi. Bu holat ingliz xalq ertaklarida ijobiy qahramonlarni tavsiflashda baholovchi leksikaning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Ingliz xalq ertagi “Atirgul daraxti” (The Rose Tree)da ezgulik va yovuzlik aksiologik binar oppozit-

siyasi qahramonlarning tashqi va ichki sifatlarini ifodalovchi leksik birliklar orqali yuzaga chiqarilgan. Jumladan, *“The girl was as white as milk, and her lips were like cherries. Her hair was like golden silk…”* tasvirlari qizning nafaqat tashqi go‘zalligini, balki uning pokligi va beg‘uborligini ramziy jihatdan ifodalaydi. Ayniqsa, *white as milk va golden silk* kabi o‘xshatishlar ingliz folklorida poklik, sof qalb va ezgulik timsoli sifatida qo‘llanadi. Parchaning keyingi qismida esa: *“…but her wicked stepmother hated her”* jumlasi orqali oppozitsiyaning ikkinchi qutbi – yovuzlik ifodalanadi. Bu yerda *wicked* sifatining qo‘llanishi o‘gay onaning shafqatsizligi, hasadgo‘yligi va g‘arazli niyatini ifodalovchi asosiy baholovchi leksik vosita hisoblanadi. Shuningdek, *loved* va *hated* fe’llarining qarama-qarshi qo‘llanilishi muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi semantik qarama-qarshilikni yanada kuchaytiradi. Demak, mazkur ertakda ezgulik va yovuzlik oppozitsiyasi nafaqat qahramonlarning xatti-harakatlari, balki ularning xarakterini tavsiflovchi sifatlar, emotsional fe’llar hamda ramziy tasvir vositalari orqali ham ifodalanadi. Bu esa ingliz xalq ertaklarida ezgulikning poklik, mehr va go‘zallik bilan, yovuzlikning esa nafrat, hasad va shafqatsizlik bilan uzviy bog‘langanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq ertagi “Ayoz”da *donolik* aksiologik qadriyati bosh qahramonning aql-zakovati, adolatparvarligi va davlatni boshqarish qobiliyati orqali ifodalanadi. Jumladan, *“Shu bilan Ayoz o‘zi podsho bo‘lib, o‘zining donoligidan xalqni odillik bilan so‘rab, mamlakatda adolat o‘rnatgan ekan”* jumlasida donoligi, odillik, adolat leksemalari qahramonning ijobiy axloqiy va intellektual fazilatlarini ifodalovchi asosiy baholovchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu birliklar o‘zaro semantik uyg‘unlik hosil qilib, donolikning adolatli boshqaruv va xalq farovonligini ta’minlovchi muhim qadriyat ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur parchada donolik nafaqat shaxsning aqliy salohiyati, balki uning to‘g‘ri qaror qabul qilishi, odil hukm chiqarishi va jamiyat manfaatlarini ko‘zlashi orqali namoyon bo‘ladi.

“Hiylagar bedana” ertagida donolik/nodonlik aksiologik binar oppozitsiyasi bevosita baholovchi leksik birliklar orqali ifodalangan. Jumladan, *“Dono bedana zag‘izg‘onning nodon va qo‘rqoqligiga ko‘p achinibdi”* jumlasida dono va nodon leksemalari o‘zaro antonimik munosabat hosil qilib, oppozitsiyaning ikki qutbini yuzaga chiqaradi. Shu bilan birga, qo‘rqoqlik leksemasining nodonlik bilan bir qatorda qo‘llanishi salbiy axloqiy bahoni yanada kuchaytiradi. Ertak syujeti davomida dono qahramon ijobiy axloqiy fazilatlarning timsoli sifatida ulug‘lansa, nodon va qo‘rqoq qahramon salbiy baholanadi. Bu orqali o‘zbek xalq ertaklarida donolik, topqirlik va mulohazakorlik yuksak qadriyat sifatida e’tirof etilishi, nodonlik va qo‘rqoqlik esa qoralanishi o‘z ifodasini topadi.

“Molly Whuppie and the Giant” nomli ingliz ertagida donolik aksiologik qadriyati qahramonning intellektual salohiyatini ifodalovchi leksik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, *“The youngest of the three strange lassies was called Molly Whuppie, and she was very clever”* jumlasida *very clever* birikmasi bosh qahramonning aql-zakovati, topqirligi va muammolarni oqilona hal eta olish qobiliyatini ifodalovchi asosiy baholovchi vosita hisoblanadi. Mazkur parchada donolik qahramonning individual fazilati sifatida tasvirlangan bo‘lsa-da, ertak syujeti davomida aynan ushbu fazilat Molly Whuppiega murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqish imkonini beradi. Demak, ingliz xalq ertaklarida donolik nafaqat intellektual salohiyat, balki topqirlik, tadbirkorlik va oqilona qaror qabul qilish bilan bog‘liq umuminsoniy qadriyat sifatida talqin qilinadi.

Ingliz xalq ertagi “Yunon malikasi” (The Greek Princess)da donolik/nodonlik aksiologik binar oppozitsiyasining salbiy qutbi qahramonning xarakterini tavsiflovchi leksik birliklar orqali ifodalangan. Jumladan, *“He was just as ill-natured and foolish as his brother, and the same thing happened to him”* jumlasida *foolish* leksemasi qahramonning aqlsizligi, uzoqni ko‘ra olmasligi va oqilona qaror qabul qila olmasligini anglatuvchi asosiy baholovchi vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, *ill-natured* sifatining foolish bilan yonma-yon qo‘llanishi salbiy axloqiy va intellektual sifatlarning o‘zaro uyg‘unligini ko‘rsatadi. Mazkur parchada nodonlik qahramonning muvaffaqiyatsizlikka uchrashining asosiy omillaridan biri sifatida talqin etiladi. Ingliz xalq ertaklarida nodonlik shaxsning salbiy xarakter xususiyati sifatida baholanib, u oqilona fikrlash va topqirlikka qarama-qarshi qo‘yiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish joizki, o‘zbek va ingliz ertaklaridagi aksiologik binar oppozitsiyalar xalqning axloqiy-estetik qarashlari, dunyoqarashi hamda milliy qadriyatlarini ifodalovchi muhim semantik vosita

hisoblanadi. Tadqiqot davomida tahlil qilingan ezgulik/yovuzlik hamda donolik/nodonlik oppozitsiyalari har ikki xalq ertaklarida umuminsoniy qadriyatlarni aks ettirishi bilan birga, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini ham namoyon etadi. Tahlillar natijasida o‘zbek xalq ertaklarida ezgulik mehr-oqibat, sadoqat, adolat va xalq manfaatini ko‘zlash bilan, donolik esa hayotiy tajriba, oqilona boshqaruv va adolatli hukm chiqarish bilan bog‘liq holda talqin qilinishi aniqlandi. Ingliz xalq ertaklarida esa ezgulik poklik, mehribonlik va yuksak axloqiy fazilatlar orqali, donolik esa topqirlik, ziyraklik, tadbirkorlik hamda murakkab vaziyatlardan aql bilan chiqish qobiliyati orqali ifodalanadi. Shuningdek, aksiologik binar oppozitsiyalar ertak matnlarida baholovchi leksik birliklar, antonimik juftliklar, emotsional-ekspressiv vositalar hamda qahramonlarning xatti-harakatlari orqali voqelanadi. Aynan shu til birliklari ertaklarning g‘oyaviy mazmunini shakllantirish, qahramonlarning axloqiy qiyofasini ochish va kitobxonga muayyan qadriyatlarni singdirishda muhim vazifani bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Afzalov M., Rasulov X., Husainova Z. O‘zbek xalq ertaklari I jild. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 384 b.
2. Afzalov M., Rasulov X., Husainova Z. O‘zbek xalq ertaklari III jild. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014. – 384 b.
3. Briggs K. British Folk-tales and Legends. – London and New York, 2002. – 373 p.
4. Danese M. Opposition theory and the interconnectedness of language, culture, and cognition // Sign Systems Studies. –Toronto, 2009. – P.11.
5. Joseph J. English fairy tales. – Pennsylvania: Pennsylvania State University, 2005. – 169 p.
6. Joseph J. More English Fairy Tales. Illustrated by John D.Batten. – London: David Nutt, 1894. – 250 p.
7. Levi-Strauss 1983:426]. Леви-Стросс К. Структурная антропология. –М.: Наука, 1983. – 536 с.
8. Мелетинский Е.М., Неклюдов С.Ю., Новик Е.С., Сегал Д.М. Проблемы структурного описания волшебной сказки // Труды по знаковым системам IV. Вып. 236. – Тарту, 1969. – С. 86-135.
9. Steel F. English fairy tales. – London, 2005. – 142 p.
10. Трубецкой Н. С. Основы фонологии. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. – 372 с.
11. Uch og‘ayni botirlar. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 304 b.